

Davlat moliyaviy nazoratini samarali tashkil etishda g‘aznachilikning roli va huquqiy bazasi

Inomjon Jumaniyazov

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Eldor Toshmamatovich Abramatov

O‘zbekiston Respublikasi bank moliya akademiyasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida davlat moliyaviy nazoratini samarali tashkil etishda g‘aznachilik institutining o‘rni, tashkiliy-huquqiy asoslari hamda ularning amaliy ahamiyati yoritilgan. Tadqiqotda g‘aznachilikning davlat byudjeti ijrosini nazorat qilishdagi funksiyalari, yagona g‘azna hisobvarag‘i orqali moliyaviy resurslarni boshqarish mexanizmlari va to‘lov intizomini ta’minlashdagi roli tahlil qilingan. Shuningdek, g‘aznachilik tizimini rivojlantirishning huquqiy bazasi, uning raqamlashtirish jarayonidagi o‘rni va moliyaviy shaffoflikni ta’minlashdagi ahamiyati ko‘rib chiqilgan.

Kalit so’zlar: g‘aznachilik tizimi, davlat byudjeti, byudjet mablag‘lari, moliyaviy nazorat, yagona g‘azna hisobvarag‘i, fiskal siyosat, samaradorlik, raqamlashtirish, davlat moliyasi, byudjet ijrosi, moliyaviy boshqaruv, iqtisodiy islohotlar, shaffoflik

The role and legal basis of the treasury in the effective organization of state financial control

Inomjon Jumaniyazov

Tashkent State University of Economics

Eldor Toshmamatovich Abramatov

Banking and Finance Academy of the Republic of Uzbekistan

Abstract: This article discusses the role of the treasury institution in the effective organization of state financial control in the Republic of Uzbekistan, its organizational and legal framework, and their practical significance. The study analyzes the functions of the treasury in controlling the execution of the state budget, the mechanisms for managing financial resources through a single treasury account, and its role in ensuring payment discipline. The legal basis for the development of the treasury system, its role in the process of digitalization, and its importance in ensuring financial transparency are also considered.

Keywords: treasury system, state budget, budget funds, financial control, single treasury account, fiscal policy, efficiency, digitalization, public finance, budget execution, financial management, economic reforms, transparency

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so‘ng ham iqtisodiy, ham siyosiy holatini mustahkamlash maqsadida birinchi navbatda mamlakat moliya tizimini isloh qilish hamda uni takomillashtirish masalalariga jiddiy e’tibor qaratdi. Xususan, hukumat tomonidan budget tizimi budgetlari mablag‘laridan oqilona va maqsadli foydalanish ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida davlat moliyaviy nazorati tizimini rivojlantirish va uning faoliyatini samarali tashkil qilish uchun bir qator me’yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda davlat moliyasini boshqarish sohasida tub islohotlar amalga oshirilib, byudjet mablag‘larini nazorat qilishda zamonaviy mexanizmlarni joriy etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, g‘aznachilik tizimining joriy etilishi davlat byudjeti ijrosini markazlashtirilgan holda amalga oshirish, moliyaviy resurslar harakatini tezkor nazorat qilish va samaradorligini oshirish imkonini berdi.

G‘aznachilik tizimining samarali faoliyati, avvalo, uning tashkiliy-huquqiy asoslari bilan chambarchas bog‘liq. Normativ-huquqiy hujjatlarda g‘aznachilikning vakolatlari, moliyaviy intizomni ta’minalashdagi vazifalari hamda davlat moliyaviy nazoratidagi o‘rni aniq belgilab qo‘yilgan. Bu esa nafaqat byudjet mablag‘lari ustidan nazoratni kuchaytiradi, balki ularning samarali taqsimlanishi va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish maqsadlariga yo‘naltirilishini ta’minalaydi.

O‘zbekistonda g‘aznachilik tizimining shakllanishi va rivojlanishiga doir tarixiy hamda huquqiy manbalar tahlil qilindi. Asosiy yondashuv sifatida normativ-huquqiy hujjatlar - “Davlat budgetining g‘azna ijrosi to‘g‘risida”gi Qonun, Budget kodeksi va tegishli qarorlar - o‘rganilib, g‘aznachilikning amaldagi funksiyalari va davlat moliyaviy nazoratidagi o‘rni tahlil qilindi. Shuningdek, g‘aznachilik faoliyatining raqamlashtirilishi va samaradorlikka ta’siri haqida axborot tizimlari joriy etilishiga oid ma’lumotlar ko‘rib chiqildi. Ushbu tadqiqot huquqiy-hujjatlar tahlili va institutsional tahlil usullariga tayangan bo‘lib, g‘aznachilik rolini baholashda normativ baza va amaliyotning o‘zaro aloqasi yoritildi.

1990-yillar oxiri va 2000-yillar boshida O‘zbekiston davlat moliyasini boshqarish tizimi bosqichma-bosqich isloh qilina boshladi. Muhim bosqich sifatida 2004-yil Oliy Majlis tomonidan “Davlat budgetining g‘azna ijrosi to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilinib, ushbu Qonun 2006-yil 1-yanvardan kuchga kiritildi. Bu hujjat davlat g‘aznachilik tizimini joriy etish uchun huquqiy zamin yaratdi va budget ijrosini yangi - g‘azna usulida yuritish mexanizmlarini belgiladi. Keyinchalik, 2007-yilda Prezident farmoni bilan davlat budgetini g‘azna tartibida boshqarish tizimini yanada rivojlantirish chora-

tadbirlari belgilandi. Ushbu qarorga muvofiq, Moliya vazirligi huzurida G‘aznachilik boshqarmasi va uning hududiy tuzilmalari faoliyati yo‘lga qo‘yildi. 2013-yil oxirida yangi Budget kodeksi qabul qilinib, 2014-yildan kuchga kirishi bilan avvalgi alohida qonun va me’oriy hujjatlar uning tarkibiga integratsiya qilindi. Natijada budget jarayoni va g‘aznachilik faoliyati yagona qonunchilik bazasi asosida boshqarila boshlandi.

G‘aznachilikning davlat moliyaviy nazoratidagi asosiy funksiyalari. Hozirgi vaqtida G‘aznachilik xizmati O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tarkibida maxsus vakolatli organ sifatida faoliyat yuritadi. G‘aznachilikning vazifalari davlat moliyasini boshqarishning turli jihatlarini qamrab olib, ular orqali davlat byudjeti ijrosi ustidan muntazam nazorat amalga oshiriladi. Jumladan, G‘aznachilik:

- Yagona g‘azna hisobvarag‘i (YG‘HV) orqali mablag‘larni boshqaradi. Davlat byudjetining barcha tushum va xarajatlari YG‘HV (bitta markazlashgan g‘azna hisobvaraq)da jamlanadi va ushbu mablag‘lar oqimi markazlashtirilgan tartibda boshqariladi. Bu yondashuv budget daromadlari va xarajatlari o‘rtasida kassa uzilishlarini oldini olish hamda likvidlikni ta’minalash imkonini beradi.

- Xarajat majburiyatlari va shartnomalar ustidan nazoratni amalga oshiradi. Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘ oluvchilar tomonidan davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg‘armalari hisobidan tuziladigan shartnomalar G‘aznachilik tomonidan majburiy tartibda ro‘yxatdan o‘tkaziladi. Bu shartnomalarning tasdiqlangan smeta doirasida hamda belgilangan maqsadlarga muvofiq tuzilganligini oldindan nazorat qilish imkonini beradi. Shu tariqa, g‘aznachilik xarajatlarning hujjatli asosga ega bo‘lishini ta’minalab, nojo‘ya majburiyatlar yuzaga kelishining oldini oladi.

- To‘lovlarni amalga oshirish va to‘lov intizomini nazorat qiladi. G‘aznachilik byudjet tashkilotlari nomidan tovarlar va xizmatlar yetkazib beruvchilarga to‘lovlarni bevosita YG‘HVdan o‘tkazadi. Ya’ni, byudjet xarajatlari g‘azna tizimi orqali amalga oshiriladi, bu esa mablag‘larning maqsadsiz sarflanishiga yo‘l qo‘ymaslik va to‘lov intizomiga rioya etilishini ta’minalashga xizmat qiladi. Byudjet tashkilotlari har qanday to‘lojni amalga oshirishdan oldin g‘aznachilik orqali tasdiq oladi, natijada moliyaviy intizom kuchayadi.

- Buxgalteriya hisobi va hisobot shakllantirishni yuritadi. G‘aznachilik davlat budjeti ijrosining buxgalteriya hisobini yuritadi, har bir tushum va xarajatni yagona tizimda aks ettiradi va budget ijrosi bo‘yicha muntazam hisobotlar tuzadi. Bu hisobotlar orqali Moliya vazirligi va hukumat davlat moliyaviy holatini real vaqtida kuzatib boradi. Xususan, G‘aznachilik byudjet ijrosi to‘g‘risidagi axborotni to‘plash, qayta ishslash va tahlil qilish funksiyasiga ega bo‘lib, natijada nazorat va tahliliy xulosa chiqarish uchun zarur ma’lumot bazasi shakllanadi.

Yuqoridagi funksiyalar G‘aznachilikning davlat moliyaviy nazorati tizimidagi o‘rnini aniq ko‘rsatadi. G‘aznachilik nafaqat budget ijrosini texnik bajaruvchi, balki

byudjet mablag‘lari harakatini doimiy kuzatib boruvchi “moliyaviy nazoratchi” rolini ham bajaradi.

Analiz

O‘zbekistonda g‘aznachilik tizimining joriy etilishi davlat moliyasini boshqarishda yagonalik va markazlashuv tamoyillarini mustahkamladi. Budget kodeksida ham budget tizimining asosiy prinsiplari qatorida “kassaning yagonaligi” tamoyili alohida qayd etilgan bo‘lib, bu mablag‘larning yagona kassa orqali harakatlanishi va shunday tartibda hisobini yuritishni anglatadi G‘aznachilik aynan shu prinsipni amalda ro‘ybga chiqaruvchi institut sifatida, ilgari tarqoq bo‘lgan byudjet hisob-kitoblarini bir joyga to‘plab, moliyaviy intizom va shaffoflikni ta’minladi. Masalan, g‘aznachilik joriy etilishidan avval byudjet tashkilotlarining mablag‘lari turli banklardagi alohida hisoblarda saqlanar edi, bu esa ularning har birida nazoratni to‘liq o‘rnatishni qiyinlashtirgan. Yagona g‘azna hisobvarag‘i tizimiga o‘tish esa barcha darajadagi budgetlarning likvidligi va sarfiyatlari ustidan markazlashgan nazoratni yo‘lga qo‘ydi.

G‘aznachilikning huquqiy bazasi ushbu institutni samarali faoliyat yuritishiga imkon yaratmoqda. Xususan, 2007-yilda tasdiqlangan G‘aznachilik to‘g‘risidagi Nizom va undan keyingi yillarda unga kiritilgan o‘zgartirishlar natijasida g‘aznachilikka davlat moliyaviy nazorati borasida keng vakolatlar berildi. Bugungi kunda G‘aznachilik xizmati O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi alohida qo‘mita sifatida faoliyat ko‘rsatmoqda. Uning markaziy apparati va Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar hamda barcha tuman(shahar)larda bo‘linmalari mavjud bo‘lib, to‘liq vertikal boshqaruv ostida yagona siyosatni amalga oshiradi. Bu institutsional tuzilma byudjet intizomini hududiy darajada ham bir xil darajada nazorat qilish imkonini beradi.

Eng muhim rivojlanishlardan biri - g‘aznachilik axborot tizimlarining joriy etilishi va raqamlashtirish hisoblanadi. Hozirgi kunda G‘aznachilikda “Davlat mablag‘larini boshqarishning axborot tizimi” (DMBAT) deb nomlangan yagona integratsiyalashgan axborot tizimi to‘liq ishlab turibdi. Bu tizim orqali byudjet tushum va xarajatlari bo‘yicha barcha ma’lumotlar kodlashtirilgan holda avtomatik ravishda yig‘iladi va tegishli darajadagi byudjetlar kesimida real vaqt rejimida tahlil qilinadi. DMBAT tizimi daromadlarni belgilangan normativlar asosida avtomatik ravishda tegishli davlat va mahalliy byudjetlarga taqsimlash, har bir mablag‘ oluvchi tashkilot bo‘yicha xarajatlar monitoringini olib borish kabi qulayliklarni yaratdi. Natijada, oldin qo‘lda bajarilgan ko‘plab buxgalteriya va nazorat operatsiyalari endilikda elektron tarzda amalga oshirilmoqda, bu esa inson omilini kamaytirib, nazoratning aniqligi va tezkorligini oshirdi. G‘aznachilik axborot tizimi yordamida Moliya vazirligi kunlik pul oqimlari balansi, byudjet ijrosi holati haqida tezkor axborotga ega bo‘lmoqda. Mazkur

raqamlashtirish tadbirlari davlat moliyaviy nazoratini yangi bosqichga olib chiqib, jamg‘arma va sarf-xarajatlarning shaffofligini ta’minlamoqda.

Boshqa tomondan, G‘aznachilik faoliyatining samaradorligi uni qo‘llab-quvvatlovchi huquqiy normalarning aniq belgilanganiga ham bog‘liq. Budget kodeksi va unga asoslangan me’yoriy hujjatlarda g‘aznachilikning vakolat va mas’uliyatlari aniq ko‘rsatilgani, operatsiyalarni rad etish yoki to‘xtatib turish huquqlarigacha tartibga solib qo‘yilgani moliyaviy intizomni buzilishidan ogohlantiruvchi vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Misol uchun, agar byudjet tashkiloti tasdiqlanmagan yoki G‘aznachilikda ro‘yxatdan o‘tmagan shartnomaga asosida to‘lov qilmoqchi bo‘lsa, G‘aznachilik bunday to‘lov hujjatlarini qabul qilmaslik huquqiga ega. Shu tariqa, nazorat tizimi “oldindan ogohlantirish” tamoyili asosida ishlaydi va noto‘g‘ri qarorlar oqibatida byudjet zarar ko‘rmasligiga kafolat yaratadi.

Muxokama

Yuqoridagi tahlil shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda G‘aznachilik tizimi davlat moliyaviy nazoratining ajralmas va eng muhim bo‘g‘inidir. G‘aznachilikning huquqiy bazasi - Budget kodeksi, prezident farmonlari va Vazirlar Mahkamasi qarorlari - uning funksiyalarini aniq belgilab bergani sababli, u ob‘ektiv va barqaror nazorat institutiga aylangan. Bu institutning joriy etilishi natijasida byudjet mablag‘lari harakati ustidan real vaqt rejimida nazorat o‘rnatalib, mablag‘larning maqsadli sarfi, byudjet intizomi hamda moliyaviy shaffoflik sezilarli darajada yaxshilandi.

Ayni paytda, davlat moliyaviy nazoratini takomillashtirish bo‘yicha islohotlar davom etmoqda. G‘aznachilik tizimini boshqarishda xalqaro standartlar va ilg‘or tajriba elementlari joriy etilmoqda. Masalan, ichki nazorat va audit tizimlarini rivojlantirish konsepsiysi doirasida g‘aznachilik faoliyatini yanada samarali tashkil etish, xodimlar malakasini oshirish va ichki monitoring tizimlarini kuchaytirish choralari ko‘rilmoxda. G‘aznachilik axborot tizimi doimiy ravishda modernizatsiya qilinib, elektron hukumat infratuzilmasi bilan integratsiyalashuv jarayoni ketmoqda - bu kelgusida byudjet mablag‘larining har bir tiyinini onlayn rejimda kuzatish imkonini beradi.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, davlat moliyaviy nazoratining samarali tashkil etilishi ko‘p jihatdan G‘aznachilik institutining faol va to‘g‘ri ishlashiga bog‘liq. O‘zbekistonda yaratilgan g‘aznachilik tizimi o‘zining huquqiy poydevori va funksional imkoniyatlari bilan byudjet intizomini ta’minalash, korrupsiyaning oldini olish va moliyaviy resurslardan oqilona foydalanishni nazorat qilishga xizmat qilmoqda. Kelgusida ushbu tizimni yanada takomillashtirish, xususan, raqamlashtirishni chuqurlashtirish, g‘aznachilikni davlat xaridlari va boshqa moliyaviy jarayonlar bilan integratsiya qilish hamda kadrlar salohiyatini oshirish orqali davlat moliyaviy nazorati yanada yuqori bosqichga ko‘tariladi. Bu esa, o‘z navbatida, davlat

moliyasining barqarorligi va jamiyat oldidagi hisobdorligini mustahkamlashga zamin bo‘ladi.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 28-fevraldaggi PQ-594-son qarori. “Davlat budgetining g‘azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”
2. Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 20-martdaggi 53-sod qarori. “Moliya vazirligining G‘aznachiligi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”
3. Robert D. Lee, Ronald W. Johnson, Philip G. Joyce. Public Budgeting Systems. Jones & Bartlett Learning; 9 edition (July 30, 2012). USA.
4. Budjet ijrosiga g‘aznachilik tizimini joriy etishning dolzarb muammolari. Ilmiy amaliy konferensiya materiallari. -T.: TMI, 2011, 113 - 114 b.
5. Davlat moliyasini isloh etishning dolzarb muammolari. Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari (20.12.2009). T.: HUMOYUN ISTIQLOL MO‘JIZASI. 2009.
6. Pulatov D., Nurmuxamedova B., “G‘aznachilik” Darslik. - T.: IQTISOD-MOLIYA, 2014.
7. I.T.Jumaniyazov, & I.A.Mingboev (2023). Gender budgeting and prospects for its implementation in Uzbekistan. Science and Education, 4 (5), 1518-1523.
8. Turayevich, J. I., & Akmal o‘g’li, S. M. (2023). INVESTITSION LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISHDA TIKLANISH VA TARAQQIYOT JAMG’ARMASINING O’RNI. PEDAGOGS jurnali, 35(4), 147-157.
9. Jia, X., Cui, Y., Patro, R., Venkatachalam, S., Kanday, R. & Turayevich, J. (2023). Application of fractional-order nonlinear equations in coordinated control of multi-agent systems. Nonlinear Engineering, 12(1), 20220335. <https://doi.org/10.1515/nleng-2022-0335>
10. Abdullaev Aybek Nazarbaevich, Jumaniyazov Inomjon To‘raevich, Sabirov Mirza Qilichbayevich, & Gulomov Ibrokhim Rustam ugli. (2024). Development Of China’s Sovereign Wealth Funds. Wire Insights: Journal of Innovation Insights, 2(1), 1-8.
11. Sovereign wealth funds of the Republic of Uzbekistan in the post-pandemic period. (2023). Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments, 1(2), 355-372. <https://euroasianjournals.org/index.php/pc/article/view/73>
12. Mirza Qilichbayevich Sabirov, Ibrokhim Rustam ugli Gulomov, Inomjon To‘raevich Jumaniyazov, & Aybek Nazarbaevich Abdullaev. (2023). Relevance and Application of Compulsory Health Insurance in Republic of Uzbekistan. Journal of Intellectual Property and Human Rights, 2(11), 71-76. Retrieved from <http://journals.academiczone.net/index.php/jiphr/article/view/1477>

13. Aybek Nazarbaevich Abdullaev, Shavkat Bayramovich Babaev, Mirza Qilichbayevich Sabirov, & Inomjon To‘raevich Jumaniyazov. (2024). TAX RELATIONS IN BUSINESS ENTITIES PROVIDING NON-STATE EDUCATIONAL SERVICES. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 25, 123-134. Retrieved from <http://www.ajird.journalspark.org/index.php/ajird/article/view/969>
14. Aybek Nazarbaevich Abdullaev, Inomjon To‘raevich Jumaniyazov, Shavkat Bayramovich Babaev, & Mirza Qilichbayevich Sabirov. (2024). PROSPECTS OF ORGANIZING RENTAL OPERATIONS IN NON-GOVERNMENT EDUCATIONAL ORGANIZATIONS ON THE BASIS OF INTERNATIONAL STANDARDS OF FINANCIAL REPORTING. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 12(2), 104-114.
15. Shavkat Bayramovich Babaev, Aybek Nazarbaevich Abdullaev, Mirza Qilichbayevich Sabirov, & Inomjon To‘raevich Jumaniyazov. (2024). SOME ISSUES OF THE DEVELOPMENT OF BANKING INNOVATIONS IN THE COMMERCIAL BANKS OF UZBEKISTAN. Academia Repository, 5(03), 31-37. Retrieved from <https://academiarepo.org/index.php/1/article/view/662>
16. Shavkat Bayramovich Babaev, Aybek Nazarbaevich Abdullaev, Mirza Qilichbayevich Sabirov, Inomjon To‘raevich Jumaniyazov, & Inomjon To‘raevich Jumaniyazov. (2024). CONCEPTUAL REFLECTION OF THE CHANGING ROLE OF THE STATE EXPORT POLICY IN THE DEVELOPMENT STRATEGY OF THE NEW UZBEKISTAN. European Scholar Journal, 5(3), 5-8.
17. Jumaniyazov Inomjon To‘raevich, Abdullaev Aybek Nazarbaevich, Sabirov Mirza Qilichbayevich, & Shavkat Bayramovich Babaev. (2024). Importance of social principles of sovereign wealth funds. Global Scientific Review, 26, 46-54.
18. Jumaniyazov Inomjon To‘rayevich. (2024). ESG IN SOVEREIGN WEALTH FUND INVESTMENTS. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 41(2), 117-124.
19. ZM Shaikh, S Ramadass, B Prakash, JI Turayevich Data-Driven Decision Making in Stock Portfolio Management: LSTM and Monte Carlo Simulation in Action- Fluctuation and Noise Letters, 2023
20. Jumaniyazov, I. T. (2019). The impact of Uzbekistan Reconstruction and development fund’s expenditure on GDP growth. Science, research, development № 16. Monografiya pokonferencyjna.
21. Oppog‘ov, J. A., & Jumaniyazov, I. T. (2024). Moliya tizimida g‘aznachilik faoliyatini rivojlanish istiqbollari. Science and Education, 5(5), 504-512.
22. Inomjon To‘raevich Jumaniyazov, Aybek Nazarbaevich Abdullaev, Mirza Qilichbayevich Sabirov, & Shavkat Bayramovich Babaev. (2024). METHODOLOGICAL BASIS FOR FORECASTING THE TAX POTENTIAL OF

THE RUSSIAN FEDERATION. Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development, 27, 100-107.

23. Abdullaev, A. N., Jumaniyazov, I. T. R., Sabirov, M. Q., & Babaev, S. B. (2024). DIRECTIONS FOR IMPROVING THE PROCESS OF PERSONAL INCOME TAX FORECASTING. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 28, 233-243.
24. Jumaniyazov, I. T. (2019). The impact of Uzbekistan Reconstruction and development fund's expenditure on GDP growth. Science, research, development № 16. Monografiya pokonferencyjna.
25. Jumaniyazov, I., & Xaydarov, A. (2023). The importance of social insurance in social protection. Science and Education, 4(1), 1033-1043. Retrieved from <https://opensource.uz/index.php/sciedu/article/view/4941>
26. Inomjon, J. (2023). GENDER BYUDJETLASHTIRISHDA DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATINING O'RNI. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(6), 1187-1191.
27. Бахронов, Ж., & Жуманиязов, И. (2023). Партиципатор бюджетлаштириш ва уни Ўзбекистонда қўллаш долзарблиги. Science and Education, 4(2), 1486-1493. Retrieved from <https://opensource.uz/index.php/sciedu/article/view/5234>
28. Davlatboyeva, M. S. qizi, & Jumaniyazov, I. T. (2023). Yashil byudjetlashtirish va uni O'zbekistonda joriy etish istiqbollari. Science and Education, 4(2), 1509-1516. Retrieved from <https://opensource.uz/index.php/sciedu/article/view/5237>
29. Jumaniyazov, I. T. (2019). Evaluation criteria for the efficiency of sovereign funds. Global science and innovations 2019: Central Asia. In International scientific conference.-Nur-Sultan (Kazakhstan) (Vol. 340, pp. 226-229).
30. Jumaniyazov, I., & Mahmudov, M. (2022). Experience of foreign countries in attracting foreign investment. Asian Journal of Research in Banking and Finance, 12(5), 32-37.
31. Jumaniyozov, I. T., & Abdumannobov, A. M. (2020). MANAGING PUBLIC DEBT. In Ключевые проблемы современной науки (pp. 3-7).
32. Jumaniyozov, I. T., & Bakhodirkhujayev A.F. (2020). ISSUES AND CHALLENGES FOR THE IMPLEMENTATION OF MACROPRUDENTIAL POLICY IN UZBEKISTAN. In Ключевые проблемы современной науки (pp. 8-11).